QO'QON XONLIGI MALIKALARI VA DODXOH AYOLLARI XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Shaharova Dinora
Qarshi DU Tarix fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: **Mamatova M.B.**
Qarshi DU O'zbekiston tarixi
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida o'zlarining bunyodkorlik ishlari, ilm ahliga homiyligi, sahovatpeshaligi bilan faol bo'lgan malikalar, jasurligi, mardligi, vatanparvarligi bilan tanilgan dodxoh ayollar, ilm-fan, san'at, adabiyot rivojlanishiga hissa qo'shgan shoiralar nomlarini ta'kidlab o'tilgan.
Kirish so'zlar: Bunyodkorlik, malika, Shohruxbiy, Nozikbibi, mavze, dehqon, Andijon, Toshkent, mustamlaka, otinoyi, mahr, mulk, amaldor, Sheralixon, volida.

O'z davrining ilm sirlarini egallagan, teran zakovatli, mehr-muhabbatda yuksak qalb sohibalari bo'lgan malikalar davlatda qamrovi birmuncha keng bo'lgan sahovatpeshalik ishlarini boshlab bergan. Shunday malikalardan biri Qo'qon xonligining birinchi hukmdori Shoxruhbiyning rafiqasi Nozikbibi sanaladi. Nozikbibi ismining ma'nosi ,,nozik qiz" degan ma'noni bildiradi. Nozikbibi XVIII asrda Hirotda yashagan. Shohruxbiy hayotining so'ngi yillarida, ya'ni taxminan 1719-yilda o'zbek urug'larini yanada jipslashtirish maqsadida Qirq urug'i oqsoqolining qizi bo'lgan Nozikbibiga uylandi. Shundan so'ng Nozikbibining mavqeyi o'zgarib, Nozik Oyim deb aytila boshlangan. Shohruxbiy ushbu xotini uchun Laylakxona (shaharning janubiy qismida) mavzesining bir tomonida yer-mulk in'om qiladi va bu joyda saroy barpo qiladi. Ikki yillar chamasi vaqt o'tib 1721-yillar atrofida Shohruxbiy vafot etgach, Nozik Oyim bu saroyga doimiy yashash uchun ko'chib o'tadi. O'ziga in'om etilgan saroy atrofidagi ekin maydonlarini atrof qishloqlardagi nochor dehqonlarga foydalanishga taqsimlab beradi. O'z o'g'li Abdurahmonni tarbiyalash bilan birga qishloq qizlarini maktab ochib savodini chiqarish bilan shug'ullanadi. O'z yerlaridan kelgan mablag'lardanyetimxona ochib miskinlarni qo'llab-quvvatlaydi hamda qishloq maktabi xarajatlariga sarf etadi. Ushbu saroy asosida yuzaga kelgan qishloqqa xalq ,,Oyimqishloq'' deb nom beradi. Keyinchalik bu joy xonlikning boshqa aslzoda ayollari uchun ham tabarruk joyga aylanib, Qo'qon malikalari bu joyda ma'lum muddat yashashni o'z burchlari va sharafi deb biladilar [Dadaboyev Y. - B. 131]. Nozikbibi davlat ishlari hayriya ishlaridan tashqari she'rlar ham yozib turgan. Bulardan eng mashhuri ,,Muxammas'' hisoblanadi [Alixo'jayev M. - B. 122]:

Ey ofati zamonai barnoyi sho'x shang,
Ey dilbaroyi mahvashi kofiri farang.
Oina ast ro'yi tu hargiz nadiyda zang,
Harchand agar buvad dili tu saxtlar zi sang.
Oshiqlaringga vojib gohi nigoh aylasang.

Xonlik tarixida nom qoldirgan malikalardan yana biri Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy (1763-17980) ning rafiqasi ming urug'i oqsoqolining qizi Zuhra Oyimdir. Shahar ahli malikani ming urug'idan ekanligini hisobga olib unga ,,Mingoyim''deb beradilar. Boshqa bir manbada ta'kidlanishicha, Mingoyimning asl ismi Faxriniso bo'lib, Imomqulibekning qizi bo'lgan [Xudoyorxonzoda. - B. 134]. Malika hukmdorga turmushga chiqqan paytida unga mahr sifatida katta, yer-mulk beriladi, ushbu mulkdagi hovlilardan birida maktab ochib, otinbibilarni yollab qizlarni o'qitadi. Bir qism yerlarini turli masjid, madrasa, xonaqoh va qabristonlarga vaqf qilib beradi. Mingoyim Nozikbibining nabira kelini bo'lganligi uchun Oyim qishloq yaqinidagi o'z

yerlarini qayinbuvisidan ibrat olib yersiz dehqonlarga taqdim etadi. Bu joyda vujudga kelgan qishloq „Oyim qo'rg'oncha''deb nomlanadi [Esanov Z., Toshmatov Sh., Isomiddin Z.- B. 52].

Mashhur o'zbek shoirasi Nodirabegim (asl ismi Mohlaroyim) ham Qo'qon malikalari orasida munosib o'rin egallaydi. Nodirabegim 1792-yilda Andijon shahrida tug'ilgan. „Komila'' va „Maknuna'' taxalluslari bilan ham she'rlar yozgan. Nodira Andijon hokimi Rahmonqulbiyning qizi bo'lib, Rahmonqulbiy ming urug'i o'zbeklarining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri edi. Olimxon ukasi Umarxonga Marg'ilon hokimligini beradi va uni 1807-yilda Nodiraga uylantiradi. Nodira shu xonadonda she'r yozishni mashq qiladi. Shoira Uvaysiy bilan tanishadi, uni muallima sifatida saroyga taklif etadi. Nodiraning turmush o'rtog'i Amir Umarxon ham Amiriy taxallusida ijod qilgan. Olimxon Mohlaroyim va Umarxonni birga qilishdan o'z toga'si va ukasi o'rtasidagi munosabatlarini mahkamlamoqchi, shu yo'sinda o'z siyosiy hokimiyatini mustahkamlamoqchi bo'lishni ko'zlagan edi. [Qayumov A. - B. 220]. Mohlaroyim Umarxon nikohiga o'tgach, avval Marg'ilonga, so'ngra Qo'qonga keladi. 1810-yili Olimxon o'ldirilgach Qo'qon taxtiga Umarxon o'tiradi. Mana shu davrdan boshlab Mohlaroyimning xonlik hayotidagi roli faollashib boradi. Umarxon davrida ayollar huquqlari ma'lum darajada himoya qilina boshlandi. Bunda uning rafiqasi Mohlaroyimning xizmatlari benihoya kattadir. U ayollarning o'qish, yozishni o'rganishlari uchun madrasalarda dars tashkil etib, otinoyilarning saboq berishini yo'lga qo'ygan.



1-rasm. Nodirabegim (Mohlaroyim)

An'anaga ko'ra Qo'qon xoni Olimxon (1798-1810) o'z hukmdorligi davrida ukasi Umarxonni 1806-yilda Mohlaroyimga uylanishi munosabati bilan kelinga mahr uchun katta yer-mulk inom etgan. Unga berilgan yer-mulk „Chek Mohlaroyim'' deb ataladi. U bu mulkda ilm-fanni rivojlantiradi, yosh ijodkor qiz-juvonlarni ijoddini qo'llaydi. Bundan tashqari Mohlaroyim ham Qo'qon malikalari udumlariga amal qilib qaynonasi Zuhra Oyim (Mingoyim) va moma qaynonasi Nozikbibidan ibrat oladi. U ham Oyim qishlog'i mavzesida yana bir qo'rg'on tashkil etib

nochorlarni qo'llaydi, dehqonlarga o'zlari foydalanishi uchun yer bo'lib beradi, bolalarni savodini chiqaradi. Buni natijasida ushbu zaminda paydo bo'lgan yangi qo'rg'onga xalq „Mohlaroyim'' qo'rg'oni deb nom beradilar. 1822-yilda Umarxon vafot etib, uning o'g'li 14-yoshli Muhammad Alixon (Madalixon) taxtga ko'tariladi. Lekin davlatni asosan, Mohlaroyim (Nodira) ning o'zi idora etadi. U madaniyat va san'atni rivojlantirishga intildi. Mohlaroyimning zamondoshi qozi Abdunabi Xotifning tamomlanmay qolgan voqeaband dostonida Mohlaroyimning hayoti va ijtimoiy faoliyati ishonarli dalillar bilan ko'rsatib berilgan: „Asar yozishdan maqsadim Nodira (Mohlaroyim) ning oqila, fahmli, ilm va so'zning qadriga yetadigan donishmand ayol ekanligini ko'rsatishdir.

Umarxon vafotidan so'ng bu iffat sadafining injusi kunlarni hasratu firoq bilan shu tariqa o'tishini noshukurlik deb bildi. U gulistondek Chahorchaman bog'iga borib Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni o'z xizmatiga chaqirib keldi". Nodira hayoti davomida ham davlat ishlarini ham adabiyot sohasini mukammal olib borgan ayollar safiga kirgan:

Vasl uyin obod qildim,
Buzdi hijron oqibat.
Seli g'amdin bu imorat,
Bo'ldi vayron oqibat,
Qildi choki piroqan dig'l dilimni oshkor,
Qolmadi ko'nglimda zaxmi ishq oqibat.

Qo'qon malikalari orasida qirg'izlarning saru urug'idan bo'lgan Yorqinoy faoliyatiga to'xtalib o'tish joiz. Yorqinoy 1802-yili Namangan viloyatining Uychi tumanidagi Qizil-Rabot qishlog'ida tug'ilgan. Boshqa manbalarda esa Asperdi dodxoh qizi deb ham ko'rsatilgan. Ammo Mahzunning „Farg'ona xonlari tarixi'' asarida Yorqinoy Asperdi dodxohning qizi emas, Axsilik To'xtanazar dodxohning qizi ekanligi ma'lum bo'ldi [Zaynobiddin Maksum. - B. 167]. Yorqinoyning bolalik yillari Talos vodiysida o'tgan. Yorqinoy aqlli, chiroyli, xushmuomala el qadriga yetadigan qiz bo'lgan. O'sha davrda Qo'qonda taxt uchun kurashlar davom etayotgan edi va bo'lajak Qo'qon xoni Sheralixon Talosga kelib qoladi. Yorqinoy Sheralixon bilan turmush quradi. Sheralixon Qo'qon xoni bo'lgach, Yorqinoy farzandlari bila Qo'qonga ko'chib keladi. Aytishlaricha, Yorqinoy o'rda hovlisida chodir tikdirib, shu yerda istiqomat qilishni ma'qul ko'rgan ekan. Yorqinoyni o'rdadagila Hokimoyim deb atashgan.

Hokimoyim dono maslahatchi, qanchadan-qancha savob ishlarni tashabbuskori bo'lgan, o'zining vafotidan so'ng amallarini o'g'li Xudoyorxonga vasiyat qilib qoldirgan.1868-yil Hokimoyim ramozon kuni vafot etadi. Uni Qo'qon malikalari dafn etilgan kichkina dahmaga dafn etishadi [Dadaboyev Y. Xudoyorxon o'rdasi. - B. 220]. Janozadan qaytgan xon uzlatda o'n kecha-kunduz surunkasiga toat ibodat qilib, shundan keyingina davlat ishlariga aralashib haramga kiradi [Umarov Sh. - B. 180].

Onasining vafotidan keyin Xudayorxon onasiga atab madrasa qurdiradi. Manbalarda aytilishicha madrasa 1869-1870 larda qurib bitkaziladi [Mirzaolim Mushrif. - B. 79]. Madrasa bunyod etilgan joy va uning me'mori haqida quyidagicha ma'lumot uchraydi: „Xudoyorxon volida sharaflarini vasiyatlari birla onalarini nomig'a madrasa solmoq bo'lib, mulla Turdiali mirzoni ishboshi qilib masjidi jomening sharqida madrasayi oliy binosig'a mashg'ul bo'lib sahl vaqtida itmomig'a yetib, Madrasai „Hokim oyim'' nomzod qildi. Va yana madrasai „Hokim oyim''g'a Shahrixon ustida daryodan ariq chiqarib, xiroji vaqf ayladi''.

Xulosa qilib aytganda Ming sulolasi malikalari orasida ilm ahliga homiylik qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalarni qo'llab- quvvatlash, ehtiyojmand oilalarning o'g'il-qizlarini tahsil olishi uchun maktablar barpo etish an'analarga aylangan bo'lib, bu borada Nozikbibi boshlab bergan bunyodkorlik ishlari keyingi malikalar davrida ham davom ettirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev Y. Xo'qondi latif mahallalari va ko'chalarining nomlanishi tarixi.- Farg'ona, 2007. - B. 131.
2. Alixo'jayev M. Qo'qon xonligining madaniy hayotida maktab va madrasalarning tutgan o'rni. - T., 2012. - B. 122.
3. Xudoyorxonzoda. Anjun at-tavorix. - T.: "Fan va texnologiya", 2014. - B.134.
4. Esanov Z., Toshmatov Sh., Isomiddin Z. Qo'qon xonlari o'rdalari tarixi. - T.: "Adabiyot uchqunlari", 2016. - B. 52.
5. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. - T.: "Fan", 1961. - B. 220.
6. Ziyabiddin Maksum. Fargana хаадарьн тарихи. - B.,2007. - B. 167.
7. Dadaboyev Y. Xudayorxon o'rdasi. - Namangan, 2016. - B. 220.
8. Umarov Sh. Xudoyorxon avlodlari tarixi. - T.: "Fan va texnologiya", 2016. - B. 180.
9. Mirzoolim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin. // Adabiyot va san'at. - T., 1995. - B. 79.

WORDLY KNOWLEDGE